

AGRAMMATIZMNING PSIXOLINGVISTIK TAHLILIDA GARRETT MODELI IMKONIYATLARI

Nazarova Sabrina Zafarjon qizi

NamDu talabasi,

Email: nazarovasabrina046@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17395219>

Annotatsiya: Ushbu maqolada agrammatizm hodisasining psixolingvistik tabiatini o'rganishda Garrett modelining nazariy va amaliy imkoniyatlari tahlil qilinadi. Model nutq ishlab chiqarish jarayonini bosqichma-bosqich tushuntirib, agrammatik buzilishlarning qaysi bosqichlarda yuzaga kelishini aniqlash imkonini beradi. Tahlil jarayonida Broka afaziyasi bilan og'rigan bemorlarning nutqiy namunalari o'rganilib, Garrett modelining lingvistik, neyropsixologik va logopedik tahlillarda qo'llash samaradorligi ko'rsatib berilgan.

Tayanch so'z va iboralar: Garrett modeli, agrammatizm, psixolingvistika, Broka afaziyasi, grammatik kodlash, nutq ishlab chiqarish, sintaktik buzilish, fonologik bosqich.

Annotation: This article analyzes the theoretical and practical possibilities of Garrett's model in studying the psycholinguistic nature of agrammatism. The model explains the speech production process step-by-step, allowing for the identification of the stages at which agrammatic disturbances occur. In the analysis, speech samples from patients with Broca's aphasia are studied, demonstrating the effectiveness of applying Garrett's model in linguistic, neuropsychological, and speech therapy analyses.

Key words and phrases: Garrett model, agrammatism, psycholinguistics, Broca's aphasia, grammatical encoding, speech production, syntactic disturbances, phonological stage.

Аннотация: В статье анализируются теоретические и практические возможности модели Гарретта в изучении психолингвистической природы аграмматизма. Модель пошагово объясняет процесс производства речи, что позволяет выявить стадии, на которых возникают аграмматические нарушения. В процессе анализа исследуются образцы речи пациентов с афазией Брока, показывая эффективность применения модели Гарретта в лингвистических, нейropsихологических и логопедических анализах.

Ключевые слова и фразы: Модель Гарретта, аграмматизм, психолингвистика, афазия Брока, грамматическое кодирование, производство речи, синтаксические нарушения, фонологическая стадия.


Kirish. Agrammatizm – bu nutq ishlab chiqarishdagi grammatik strukturalarning buzilishi bilan xarakterlanadigan hodisadir. U asosan Broka afaziyasi bilan og'rigan bemorlarda kuzatiladi. Bemorlar so'z boyligiga ega bo'lishiga qaramay, fe'l zamonlari, kelishiklar, ergash gap tuzilmalarini to'g'ri ishlatishda qiynaladilar.

Psixolingvistika agrammatizmni faqat lingvistik hodisa sifatida emas, balki neyropsixologik jarayonlar bilan bog'liq kompleks buzilish deb hisoblaydi. Shu nuqtayi nazardan, Garrett modeli tilni o'rganish va tilni tushunish jarayonlarini aniqlik bilan o'rganishga yordam beradi. Bu model, asosan, nutq va tilning psixolingvistik jihatlarini - strukturaviy, semantik va pragmatik aspektlarini - tahlil qilishga yo'naltirilgan. Garrett modeli (1980) til ishlab chiqarish jarayonini besh asosiy bosqich orqali tahlil qiladi: xabar shakllanishi, leksik tanlov, sintaktik tuzilish, fonologik kodlash va artikulyatsiya.

Mazkur model til ishlab chiqarishdagi har bir bosqichda yuzaga keladigan agrammatik xatolarni aniq ajratish va ularni tuzatish strategiyalarini ishlab chiqishda samarali usul sifatida qo'llaniladi.

Garrett modeli (Merrill F. Garrett, 1975–1982) psixolingvistika sohasida nutq ishlab chiqarish jarayonini bosqichma-bosqich tahlil qiluvchi eng muhim nazariy yondashuvlardan biridir. U inson nutqi qanday shakllanishini, ya'ni mazmundan grammatik tuzilishga va tovush shakliga o'tish bosqichlarini aniq tizim asosida izohlaydi. Modelning mohiyati shundan iboratki, til ishlab chiqarish jarayoni qat'iy izchillikka ega bo'lib, unda semantik, sintaktik va fonologik darajalar o'zaro uzviy bog'liq holda faoliyat ko'rsatadi.

Garrett nutq hosil qilishni to'rt asosiy bosqichga ajratadi: konseptual, funksional, pozitsion va fonologik. Ushbu bosqichlarning har biri til va tafakkur o'rtasidagi murakkab kognitiv jarayonlarni aks ettiradi:¹



1-rasm. Til ishlab chiqarish jarayoni.²

1. Xabar darajasi (Message level) – fikr va mazmun shakllanadi, ya'ni bu bosqichda inson aytmoqchi bo'lgan fikrning umumiy ma'nosi shakllanadi. Fikr hali til birliklari orqali ifodalanmagan bo'lib, u asosan semantik rejalashtirish bilan bog'liq. Shaxs o'z ongida maqsad, voqea, ishtirokchilar va ularning munosabatlarini aniqlaydi.

Agrammatik bemorlar, odatda, konseptual bosqichni saqlab qoladilar — ular nimani aytmoqchi ekanini biladilar, biroq bu fikrni grammatik shaklda ifodalashda qiynaladilar. Bu esa

¹ Garrett M.F. Levels of processing in sentence production. 1980.

² Garrett M.F. Levels of processing in sentence production. 1980.

keyingi bosqichlarda, ya'ni funksional va pozitsion jarayonlarda nuqsonlar mavjudligini ko'rsatadi

2. Funksional daraja (Functional level) – so'zlar tanlanadi, sintaktik rollar belgilanadi. Funksional bosqichda so'zlarning sintaktik rollari (masalan, ega, kesim, to'ldiruvchi) aniqlanadi va lemma tanlash (so'zning lug'aviy shaklini belgilash) amalga oshiriladi. Shuningdek, bu bosqichda grammatik munosabatlar shakllanadi.

Agrammatizmda aynan shu bosqichda xatoliklar ko'p kuzatiladi: bemor fe'l shaklini tanlay olmaydi, bog'lovchi yoki kelishik qo'shimchalarini tushirib qoldiradi, so'zlar orasidagi sintaktik aloqani yo'qotadi. Garrett modeliga ko'ra, bu hol funksional bosqichdagi grammatik rejalashtirishning buzilishi sifatida izohlanadi.

3. Pozitsion daraja (Positional level) – morfologik shakllanish, so'z tartibi va affikslanish amalga oshadi. Bu bosqichda so'zlar aniq tartibda joylashtiriladi, morfologik moslik (fe'l–ot, ot–sifat, zamon, shaxs) ta'minlanadi. So'zlar sintaktik strukturaga kiritiladi va gapning yakuniy grammatik shakli hosil bo'ladi.


O'zbek tilida pozitsion bosqichdagi buzilishlar so'z tartibi va qo'shimchalar bilan bog'liq bo'ladi. Masalan:

“Men maktab bor” (to'g'risi: Men maktabga boryapman)

“U kitob o'qimoq” (to'g'risi: U kitob o'qiyapti)

Bunday xatoliklar agrammatizmning klassik ko'rinishlaridan bo'lib, pozitsion darajadagi grammatik qayta ishlashning izdan chiqishini bildiradi.

4. Fonologik kodlash (Phonological encoding) – so'z tovushlarga aylanadi. Bu bosqichda nutq tovush shakliga o'tadi. Har bir so'zning fonemalari tartibga solinadi, fonetik rejalashtirish amalga oshiriladi va artikulyatsion mexanizmlar ishga tushadi. Agrammatizm odatda yuqori bosqichlarda (funksional va pozitsion) sodir bo'ladi, biroq og'ir holatlarda fonologik darajadagi kamchiliklar — tovushlarning tushib qolishi, talaffuzdagi xatolar ham kuzatiladi.



2-rasm. Grammatik kodlash jarayoni.³

Ushbu bosqichlarda yuzaga kelgan har qanday uzilish agrammatizm sifatida namoyon bo'ladi. Ayniqsa, funktsional va pozitsion bosqichlardagi grammatik kodlashdagi xatolar Broka afaziyasining asosiy belgilaridan biridir.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot Garrett modeli asosida olib borildi. Tahlil uchun Broka afaziyasiga chalingan bemorlarning nutq namunalari foydalanildi. Har bir bemorning nutqiy ishlab chiqarish jarayoni bosqichma-bosqich tahlil qilinib, grammatik xatolar funktsional, pozitsion va morfologik darajalarga ajratildi. Tahlilda psixolingvistik kuzatuv, lingvistik tahlil, va neyropsixologik diagnostika usullari qo'llanildi.

Natijalar va mulohazalar.

➤ Funktsional darajadagi buzilishlar: Bemorlar kerakli so'zlarni tanlay oladi, ammo ularni sintaktik jihatdan to'g'ri joylashtira olmaydi.

Masalan: "Men kitob o'qimoqchiman" o'rniga "Men o'qimoqchi kitob" deyish holatlari kuzatildi.

➤ Pozitsion darajadagi buzilishlar: So'z tartibi, affikslar qo'shish va morfologik shakllanishda xatolar mavjud.

Masalan: "Men maktabga boraman" o'rniga "Maktab men bor" kabi jumlar.

➤ Morfologik o'zgarishlar: Fe'l zamonlari, shaxs-son qo'shimchalari noto'g'ri ishlatiladi yoki tushirib qoldiriladi.

Masalan: "Bor" o'rniga *"boraman"*ni ishlata olmaslik.

³ Garrett M.F. Levels of processing in sentence production. 1980.

➤ Fonologik xatolar: Kam uchraydi, ammo ba'zi hollarda tovushlar aralashib ketishi yoki qisqarib qolishi aniqlangan.

Tahlil natijasida aniqlangan muhim jihatlardan biri Garrett modelining funktsional va pozitsion bosqichlari agrammatik xatolarni aniqlashda eng sezilarli bo'lishi hisoblanadi.

Garrett modeli nutq ishlab chiqarishning psixologik va lingvistik mexanizmlarini aniqlashda muhim rol o'ynaydi. U orqali bemor nutqidagi xatoliklarni funktsional yoki pozitsion darajada aniqlash mumkin. Bundan tashqari, model bugungi kunda logopedik reabilitatsiya, lingvopsixologik diagnostika hamda sun'iy intellekt asosida nutq tahlili tizimlarida ham qo'llanilmoqda. Zamonaviy tadqiqotlarda Garrett modeli ikkinchi tilni o'rganayotgan shaxslarning grammatik xatolarini tahlil qilishda ham qo'llanmoqda. Shu bois, bu modelning imkoniyatlari tilni o'rganish, o'qitish va nutq buzilishlarini korreksiyalashda keng ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Xulosa. Garrett modeli agrammatizmni o'rganishda integrativ yondashuvni ta'minlaydi. U til ishlab chiqarishning turli bosqichlarini aniqlik bilan ajratib, har bir bosqichdagi buzilishlarni psixolingvistik nuqtayi nazardan izohlash imkonini beradi. Model asosida olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, bemorlarda asosan funktsional va pozitsion darajadagi grammatik kodlash buziladi. Shu bois, Garrett modeli asosida ishlab chiqilgan terapiya strategiyalari agrammatik bemorlarning nutqiy faoliyatini tiklashda muhim ahamiyatga ega. Kelgusida ushbu modelni neyropsixologik diagnostika, logopedik amaliyot va til o'rganish jarayonlarida qo'llash samarador natijalar berishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Garrett M.F. Levels of processing in sentence production. Academic Press, 1980.
2. Mary-Louise Kean. Agrammatism. London: Academic Press, 1985.
3. Levelt W.J.M. Speaking: From Intention to Articulation. MIT Press, 1989.
4. Goodglass H., Kaplan E. The Assessment of Aphasia and Related Disorders. Philadelphia: Lea & Febiger, 1972.
5. Yosef Grodzinsky. Agrammatism. Springer, 1990.
6. Lise Menn & Loraine K. Obler. Agrammatic Aphasia: A Cross-Language Narrative Sourcebook. John Benjamins, 1990.
7. Dell G.S. Stages of lexical access in language production. Psychological Review, 1992.
8. Eric R. Kandel, James H. Schwartz, Thomas M. Jessell. Principles of Neural Science. McGraw-Hill, 2013.
9. Leonard L. LaPointe. Aphasia and Related Neurogenic Language Disorders. Thieme, 2012.
10. David W. Carroll. The Psychology of Language. Cengage Learning, 2013.